



MURAKKAB VOQEALAR TALQINI

Botirova Gulsevar Muzaffar qizi

Guliston davlat universiteti Filologiya fakulteti talabasi

botirovagulsevar2007@gmail.com

Orcid 0009-0009-9308-6449

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21847381>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” asaridagi bosh qahramon Bobur va uning yaqinlari Xonzoda begim, Xurramshoh kabi obrazlarning ko’rsatgan qahramonliklari yoritib beriladi. Asar shoh va shoir Bobur hazratlari hayotiga bag’ishlanadi. Unda taxtga o’tirganidan tortib olib borgan yurishlaridan to o’limigacha bo’lgan davr yozib o’tilgan. Yuritgan siyosati va qahramonliklari yoritilgan.

Kalit so’zlar: Temuriylar sulolasi, tarixiy roman, qahramonlik, obraz, jang.


Abstract: This article highlights the heroic deeds of the protagonist Babur and his close relatives, such as Khanzada Begum and Khurramshah, as depicted in Pirimqul Qodirov’s novel “Starry Nights” (Yulduzli tunlar). The work is dedicated to the life of the king and poet, Babur Mirza. It chronicles the period from his accession to the throne, through his military campaigns, until his death. His political career and acts of bravery are portrayed with historical authenticity.

Keywords: Timurid dynasty, historical novel, heroism, character, battle.

Аннотация: В данной статье рассматривается роман Пиримкула Кадырова “Звездные ночи” и образы героев, представленных в нем, таких как Бабур, Ханзаде бегим, Хуррамшах и другие близкие соратники героя. Освещаются каждое стихотворение и героические поступки поэта-шаха. Произведение посвящено жизни Бабура с момента его вступления на престол до самой смерти. Ярko описаны его политическая деятельность и личное мужество.

Ключевые слова: династия Тимуридов, исторический роман, героизм, образ, битва.

San’atning boshqa turlari kabi badiiy adabiyot ham hayotni undagi insonlarning ruhiy holatini, o’y-fikrlarini aks ettiradi. Hayot hamisha insonlarning tirikchiligi, mehnat faoliyati, kurashi, his-tuyg’ulari, kechinmalaridan iborat. Obraz – voqelikni faqat san’atga xos usulda o’zlashtiradigan va o’zgartiradigan xarakterlovchi estetik kategoriya. Shuningdek, badiiy asarda ijodiy qayta yaratilgan har qanday voqea ham obraz deb yuritiladi. Badiiy adabiyotda insonning alohida shaxs qiyofasida yaratilgan, ayni paytda badiiy umumlashtirma xususiyatiga ega bo’lgan surati va hissiy ta’sir kuchiga ega bo’lgan badiiy obraz (obraz/timsol) hisobladi. Obraz tushunchasining keng ma’noda va tor





tushunchalari mavjud. Keng ma'noda – asardagi obraz tushunchasi fikr-tuyg'ulari singdirilgan hayot manzarasini anglatadi. Tor ma'noda esa badiiy asarda aks ettirilgan inson siymosini ifodalaydi.


Pirimqul Qodirov qalamiga mansub "Yulduzli tunlar" romani o'zbek yozuvchisi Pirimqul Qodirov tomonidan 10 yil davomida yozilgan. Asar Muhammad Bobur hayoti haqida so'z yuritadi. Bu asarga "Boburnoma" asari asos bo'lgan. Bu asar shoh va shoir, o'z davrining garchand bilimdoni bo'lsa-da, o'zbek romanchiligining yetuk namunasidir. Bobur shaxsiga qiziqishi va asar yozishga bog'ladi.

"Yulduzli tunlar" zamonaviy o'zbek adabiyotining eng sara asarlaridan biri hisoblanadi. P.Qodirov 80-yillarda "Yulduzli tunlar" romanining mantiqiy davomi sanalmish Boburning nabirasi Humoyun hayoti haqidagi "Avlodlar dovoni" romanini yozgan. 1982-yil muallif roman uchun Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti bilan taqdirlangan.

"Yulduzli tunlar" dunyoning bir necha tillariga, jumladan, rus, qoraqalpoq, qirg'iz, qozoq, urdu, turk, hind, bengal, ingliz tillariga tarjima qilingan. Ikki marta ingliz tiliga o'girilgan. Ilk bor Samarqand davlat chet tillari instituti olimlari Alhonov, To'xtasinov, Yo'ldoshev va Hamidalar tomonidan, bu tarjima "Starry Nights: Babur" nomi bilan berilib chiqqan. 2023-yilda esa Carol Jermakova hamda Islom Karimov nomidagi fond yo'llari bilan qilgan tarjima "Babur: Starry Nights" nomi bilan chop etilgan.

Biz bu asarni o'qir ekanmiz bevosita tarixga sayohat qilamiz, qahramonlar bilan yashaymiz. Asarning ta'sirchanligi shu darajadagi, o'quvchining fikr-u xayolini egallab oladi, o'sha davrga, o'sha muhitga va sharoitga tushib qolgisi, yashagisi, yirtqich siyosiy vaziyatlarga aralashib ketgisi keladi. Qahramonlarning ichki kechinmalari shu darajada ochib berilganki, chunki o'quvchi ularning quvonchlariga, g'am-alamlariga, ixtiyorlariga sherik bo'ladi.

Bu buyuk shaxsni butun dunyo tan oldi va jasoratlariga qoyil qoldi. Birinchi prezidentimizning quyidagi gaplariga e'tibor beraylik: "Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mumtoz insonlarni dunyoga bergan xalq hech qachon xor bo'lmaydi, muqarrar tarzda saodatga erishadi". Yoki masghur jamoat arbobi Javaharlal Neruning gaplari Bobur shaxsini yanada ochib beradi: "Bobur Hindistonga kelgandan keyin katga siljishlar yuz berdi va yangi rag'batlantirishlar hayotga, san'atga, arxitekturaga toza havo baxsh etdi, madaniyatning boshqa sohalari esa bir-birlariga tutashib ketdi". Bu kabi misollar nihoyatda ko'p. Masalan: Bobur fe'l-atvoriga ko'ra Sezarga qaraganda sevishga arzigulikdir. Uning manglayiga yuksak fazilatli inson deb bitib qo'yilgan (Eduard Holden, tarixchi olim);





Mirzo Boburning Hindistondagi qudrati uning bosib olgan yerlari bilan emas, u hind xalqining ko'nglida uyg'ota olgan hurmat-ehtirom bilan o'lchanadi (Qamar Rais, jamoat arbobi va adabiyotshunos);

Boburning hind xalqiga qilgan eng katta xizmati shuki – u xalqimizning ruhiy-ma'naviy olamini kengaytirib, ularni o'z kulbalaridan tashqariga qarashga, dunyoning naqadar katta ekanini anglashga majbur qildi. Bobur san'at va, ayniqsa, adabiyotni sevardi (Javoharlal Neru, jamoat arbobi);

Saxovati va mardligi, iste'dodi, ilm-fan, san'atga muhabbati, ularga mashg'ulligi bilan Osiyodagi podshohlar orasida Boburga teng keladigan birorta hukmdor topilmaydi (Uilyam Erskin, "Boburnoma"ning ingliz tarjimoni).

Yuqoridagi misollardan shuni anglashimiz mumkinki, bobomiz boshqa shohlar yoki hokimlar singari bosib olgan davlatini vayron etmagan, xalqini xorlamagan. Aksincha yurt obodligi, uning ravnaqi uchun jon-jahdi bilan harakat qilgan. Hindiston suv bo'yidagi davlat bo'lgani uvhun ham asosiy inshootlar suv ustida qad rostlagan. Bundan tashqari xalqni o'qimishli qilish maqsadida madrasalar ham qurdirganligi aytilgan. Hind diyorida juda ko'plab ro'jalar bor edi. Ularga Boburning Hindistonda o'rnashib qolishi turli xil fitnalar uyushtirishlariga sabab bo'lgan. Ammo Bobur taslim bo'lmasdan xalqni yaxshi yo'llar, murosaga kelish bilan o'ziga hayrihoh qilgan. Uning vorislari ham bu an'anani davom ettirishdi. Ayniqsa, Akbarshohning yuritgan siyosati tahsinga sazovor. Bu ma'lumotlar Pirimqul Qodirovning "Avlodlar dovini" asarida batafsil yoritilgan.

Muhokama va natijalar "Bobur Mirzoning hayoti va faoliyatiga oid mavzular ummonday cheksiz. Bu ummonda o'nlab, yuzlab adabiy kemalar suzishi mumkin. "Yulduzli tunlar" ana shu mavjli kemalardan biri tarzida yuzaga keladi. 1972-yilda ilk bor yozib nashrga topshirganida tog'day bir yuk yelkandan tushganday bo'lgan edi, lekin mustabid tuzum tazyiqi ostida roman yetti yil chop etilmay yotdi. Bu yillar davomida o'sha zalvorli yukni yana yelkamda ko'tarib yurganday bo'ldim. Bobur Mirzo Temuriylar sulolasini halokatdan qutqarib, asrdan-asrga, mamlakatdan-mamlakatga olib o'tganligi, bu ulug' sulola Hind zaminida yana uch yuz yildan ortiq davr surganligi o'sha yillardayoq kitobxonda hayrat va iftixor tuyg'usini uyg'otgan edi", – deb yozadi adib roman haqida. Bu roman ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda Movarounnahr bilan voqealar, ikkinchi qismda Afg'oniston, Xuroson va Hindistonda bo'lgan hodisalar aks etishini Bobur shaxsiyati, o'y-xayollari birlashtiradi.


Zahiriddin Muhammad Bobur 14-fevral 1483-yilda Andijonda tug'ilgan va Amir Temurning beshinchi avlodi, Farg'ona hukmdori Umarshayxning eng





katta o'g'il farzandi bo'lgan. Boburning onasi – Qutlug' Nigorxonim Toshkent hokimi Yunusxonning qizi, oqila ayol bo'lgan. Boburga hokimiyatni boshqarishda yordam bergan, harbiy yurishlarida yonida turgan. Bobur otasining bevaqt o'limi tufayli 12 yoshida taxtga chiqadi. Uning asosiy maqsadi Amir Temur qurgan davlatni qayta tiklash, bobosining avlodlarini bitta joyga yig'ish bo'lgan. Albatta, bunga erishish uchun Bobur ko'hna poytaxt Samarqandni egallashni shart bilgan. Bir necha bor egallaydi ham, ammo xoinliklar, fitnalar sababli yana qo'ldan chiqaradi. Asar faqatgina Bobur hayotiga bag'ishlanmay oddiy qora xalqning kechmishlarini ham tasvirlab bergan. Asar quvalik oddiy dehqon farzandi bo'lgan Tohir va Robiyaning sevgi qissasi bilan boshlanadi. Umarshayx vafotidan keyingi toj-u taxt tashvishlari Boburni tinimsiz kurashga va izlanishga majbur qildi. Uning atrofidagi Ahmad Tanbal singari xoin kimsalar doim unga xavf berdilar. Har davrida biz Xanzoda begim ko'rsatgan jasoratlarni ko'rib, uni To'marisga tenglashtirsak mubolag'a bo'lmaydi.

1500-1501-yillarda Xonzodaning ukasi Bobur va Shayboniyxon o'rtasidagi ziddiyat avjiga chiqdi. Katta qo'shin bilan Samarqandni 5 oy mobaynida mudofaa qilgan Shayboniyxon sulh evaziga Xonzoda begimni o'ziga xotinlikka so'raydi. Xonzoda va Boburning nufuzli qarindoshlaridan birortasi, amakisi, Xuroson hukmdori Sulton Husayn Mirzo Boyqaro Boburga yordam jo'natmadi. Xonzodaning jiyani Gulbadan begimning guvohlik berishicha, "oxirida shunday qilish kerak edi, u begimni xonga berdi". Xonzoda begim Shayboniyxon nikohiga kiradi va undan Xurramshoh ismli o'gil ko'radi. "Boburnoma"da yozilishicha, 1500-yilda Xonzodaning ukasi Bobur Muhammad Shayboniyxon tomonidan besh oylik qamaldan so'ng Samarqandni tark etishga majbur bo'lgan, bu vaqtda Xonzoda Shayboniyxonga o'tgan. Henry Beveridgening yozishicha, "Shayboniynoma"ga ko'ra, Xonzodaning Shayboniyxonga nikohi sevgi nikohi bo'lgan. Shuningdek, u "Bobur barcha holatlarni tilga olmagan va u Xonzoda Samarqandda qoldirilgani Boburning Shayboniy bilan tuzgan kelishuvining bir qismi bo'lgan" degan taxminni ilgari suradi. Xonzoda begim o'zining aql idroki va tadbirkorligi tufayli saroy ahli orasida yuksak hurmat va e'zozga sazovor bo'ladi. Boburning vafotidan keyin Xonzodabegim "Boburnomani"ni nihoyasiga yetkazib qo'yadi. Xonzodabegim 1545-yil sentyabrida jiyani Humoyun bilan Qandahordan o'zining kichik ukasi Kamron Mirzo bilan uchrashish uchun ketayotganida Kobul haq mavzeyida vafot etadi. Uch oydan keyin uning xoki Kobulga keltirib, Bobur maqbarasiga dafn qilinadi.





“Boburnoma”ning bizgacha yetib kelgan nusxalarida Xonzodabegimning Bobur Samarqandni sulh asosida tashlab chiqqan 1501-yil avgust oyida “Shayboniyxonga tushgani” qayd etilib, opaning 1510-yil dekabrda Marvdan shoh Ismoil tashabbusi bilan Bobur Mirzo oldiga yuborilgani hamda opasining Shayboniyxondan tuqqan “Xurramshoh otliq maqbul o’g’lon”ining Balxda hokim bo’lgani va otasi halok bo’lgani voqeasidan bir-ikki yil o’tib esa vafot etgani qayd etiladi, xolos. “Tarixi Rashidiy”da Xonzodabegimning keyinchalik Shayboniy nikohidan chiqarilgani, buning sababi esa Shayboniyxon Xonzodabegimni ukasi Boburning maslahatiga ko’ra xon hayotiga qasd qilib qo’yishi mumkinligidan gumonsiragancha taloq qilib, Sayyid Atoiy avlodidan bo’lmish Sayyid Hodiga bergani, bu sayyidning esa Shayboniyxon va boshqa shayboniy sultonlari, umuman, dashti qipchoqlik barcha o’zbeklar oldida katta e’tiborga egaligi eslatiladi. Yana Sayyid Hodi Marvdagi jangda o’ldirilgach, Xonzodabegim safaviylar qo’liga asir tushgani va Shoh Ismoil uning kimligini bilgach, izzat-hurmat ko’rsatib, o’z elchisi bilan birga Bobur Mirzo oldiga yuborilgani ham qayd etilgan.

Xurramshoh mavzusiga qaytsak. “Musaxxiir al-bilod” muallifi Xurramshoh haqida yana shunday yozadi: “Otasi Marv qamalida qolganda birinchi bo’lib shu Xurramshoh Balx lashkari bilan otasi yordamiga oshiqqan edi... Otasi dunyoni shahidlik bilan tark etgach, Xurramshoh ham oxirat sari shitob bilan ketdi. Xurramshohdan nasl qolmadi. “Ko’rinadiki, tomirida uch tomonlama chingiziy va temuriylar qoni yurib turgan Xurramshoh safaviy hukmdor Shoh Ismoil Balx sari yurmasdan burun Samarqandga qaytadi. U tog’asi safaviylar yordamida Samarqandni egallagan 1511-yil kuzidan oldin, ya’ni o’sha yil yozida yo Samarqandda, yo Turkiston shahrida vafot etadi. Bilmizki, shundan so’ng Bobur yana olti oy Samarqand taxtida o’tiradi. Ayni o’sha paytda Samarqandda istiqomat qilib turgan va o’sha davr voqealarini “Suluk ul-muluk” asari muqaddimasida aks ettirgan Ruzbehon Isfahoniy shayboniylarning Turkistonga qochib ketgani, 1512-yil aprelida esa ularning yana qaytib kelib, Buxoroga yaqin Ko’li Malik yonidagi jangda Boburni yengib, mamlakatni qaytadan qo’lga kiritgach, shaharu tumanlarni o’zaro taqsimlashgani hamda Boburning o’sha davr ichidagi hukmdorlik faoliyatini batafsil yozib, o’zbek xonzoda va sultonlari nomini bir-bir va qayta-qayta tilga olarkan, Xurramshoh nomini biron marta ham zikr etmaydi. “Musaxxiir al-bilod” muallifi ham bu jarayonni mufassal yozarkan, Xurramshoh haqida sira fikr bildirmaydi. Agar Xurramshoh bu paytda tirik bo’lganida unga ham ona boshqa akasi Temur sulton va uning o’g’illari, ona boshqa ukasi Sevinch Muhammad Sulton kabi Samarqanddagi sheriklik taxti yoki kamida biror viloyat





va tuman hokimligi berilgani qayd etilgan bo'lardi. (Akademik Bo'rivoy Ahmedov ham "Istoriya Balxa" kitobida tahlil va izohsiz bo'lsa-da, Xurramshohning tug'ilish va vafoti sanasini 1502–1511-yillar shaklida ko'rsatgan.)


Bobur o'zining asosiy maqsadiga, ya'ni bobosining qurgan davlatini qayta tiklay olmadi, lekin Hindistonda tinch va osoyishta hayot tarzli davlat tuzishga muvaffaq bo'ldi. Boburning olib borgan siyosatiga va qilgan ishlariga dunyo davlatlari so'zsiz qoyil qolishgan va ko'plab yozuvchi va olimlar bobomiz haqida ko'proq ma'lumot to'plashga harakat qilishadi

Jismimda isitma kunda mahkam bo'ladur,
Ko'zdin o'chadur uyqu chu oxsham bo'ladur.
Har ikkalasi g'amim bila sabrimdek,
Borg'on sayi bu ortadur, ul kam bo'ladur".

Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" asarida Boburning kundan-kunga quvvatsizlanib borishi, rangining vaqti-vaqti bilan sarg'ayishi, oriqlab ketishi, uyqusizligi haqida ko'p bayon etiladi: " – Humoyun o'g'lim, Bayda menga zahar berganidan beri hech o'zimga kelolmayman. Qolgan kuchim ijodga yetsa ham xo'p gap. Endi davlat yukini sen yelkangga olmog'ing kerak". Yana: "Mezon o'tib, qavs oyi kirganda Boburning kasalligi battar og'irlashdi. Biror joyida yara yoki shish yo'q, lekin nuqul ichi kuyadi, isitmasi ko'tarilib, betoqat bo'ladi, uyqusizlik qiynaydi, rangi kun sayin so'lib boradi"; "Humoyun kelsa, otasi o'z xobgohida baland oq to'shakda terga botib yotibdi. Rangi sap-sariq bo'lib ketgan..." Yuqoridagi alomatlar: u uyqusizlik, betoqatlik, sarg'ayish, oriqlash, jigarning antitoksik, ya'ni organizmdagi qonni zaharli moddalardan tozalash xususiyati yo'qolganligidan, tozalanishi zarur bo'lgan ichak tizimlaridan so'rilib boruvchi qon jigarda zararsizlanmasdan tanaga, markaziy asab tizimiga tarqalayotganidan dalolat beradi. Chunki organizmdagi 3500-4000 ml. qon jigar parenximasidan tozalanib o'tib tanaga tarqalishi kerak. Jigarning bu asosiy faoliyatining butunlay izdan chiqishi yuqorida bayon etilgan manzaraga olib keladi.

Xulosa. Asar yakunida esa Boburning zahardan emas, balki o'g'li Humoyunning dardini o'ziga olganidan vafot etgani haqida ma'lumot berilgan. Ko'plab tabiblar Humoyun dardiga da'vo topisha olmadi va eng qadrli narsani qurbon qilishi so'rashgan. Shunda Bobur bobomiz hech o'ylab o'tirmasdan dardini o'ziga oladi va mana shu sababga ko'ra vafot etadi

Asar tili soda va tyshunarli. Uni har qanday inson tuishunadi va qalbidan chuqur joy egallaydi. Unda o'sha davrdagi siyosiy jarayonlar badiiy tarzda ifodalangan. Shuningdek, asarda darv ijtimoiy iqtisodiy hodisalar haqida,





xalqning turmush tarzi to'g'risida ham yozib o'tgan. Yasama obrazlar (Tohir va Robiya munosabatlari) asarning badiiyligini oshirgan. Boburning iolasidagi ahvol, do'stlarining sadoqati (Qosimning har qanday vaziyatlarda ham uning yonida bo'lgani), ishonganlarining xiyonat qilsihlari o'quvchida his-tuyg'ularni uyg'otib yuboradi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, "Yulduzli tunlar" va uning mantiqiy davomi hisoblanmish "Avlodlar dovoni" romanlari Pirimqul Qodirovning yuksak saviyasi va mahoratidan dalolar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sultonov O'g'ilshod (2002). "Ilm sarchashmalari", Urganch davlar universitetining ilmiy-metodik jurnali -Urganch, 2002-yil 8-son.
2. "Yulduzli tunlar". Sharq nashriyoti – 2016.
3. www.ziyouz.com.kutubxonasi
4. Fayziyev Turg'un. "Temuriy malikalar". Sharq nashriyoti – 2023.

